

**SO‘FI OLLOYORNING "SABOT UL-OJIZIN" ASARIDA USTOZ VA SHOGIRDLIK AN‘ANALARINING AKS ETISHI**

*Muxanova Maftuna Ergash qizi*

*Urganch davlat universiteti*

*adabiyotshunoslik yo‘nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada So‘fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asaridagi "Har bir ishda yetuk ustoz istamak bayoni" bobi keng tahlil qilinadi. Umuman ustoz va shogirdlik an‘analariga, murid va murshid tushunchalariga qisman to‘xtalib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** pir, murid, murshid, ustoz, shogird, ilm-fan.

Eng qadimgi davrlardan boshlab ilm insonni ulug‘lovchi yetuk fazilatlardan biri sifatida qadrlanadi. Ilm olgan insonlar, ya‘ni ilm ahli johil va to‘pori odamlardan o‘z aqli, fe‘l-atvori va zakovati bilan qanchalar ustun turishi turli rivoyatlar, afsonalar va asarlar orqali og‘izdan og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, Islom dinining keng yoyilishi va Islom uyg‘onish davrining boshlanishi butun dunyoga ko‘plab olim-u ulamolarning, ilm-fan kishilarining yetishib chiqishiga, yangi fanlarning yuzaga kelishi va mavjud fanlarning taraqqiyotiga tom ma‘noda "doyalik" qildi.

Ilm-fanning yuksalishi ta‘limning, ta‘lim muassasalarining, ustoz va shogirdlik an‘analarining ham rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida adabiyotga ham o‘z hissasini qo‘shdi.

Yetuk murabbiy, sohirnafas shoir So‘fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari irfoniy ma‘no ifodasi hayot haqiqatlariga uyg‘unlikda badiiy ifoda topgan o‘ziga xos badiiyat namunasidir. Unda ustoz va shogirdlik masalasiga ham alohida e‘tibor qaratigan. Bevosita ushbu masalaga bag‘ishlangan bob "Har bir ishda yetuk ustoz istamak bayoni" deb nomlanadi. To‘g‘ri, inson hayotida kimdandir nimanidir o‘rganadi. Ammo muayyan maqsad yo‘lida, albatta, yo‘lboshchi, murabbiyga ehtiyoj bor. So‘fi Olloyorning kitobida esa tariqat manzilida pir tutish borasida ko‘rsatma ham bayon qilingan, Bob nomining "har bir ishda" degan qismiga e‘tibor qaratar ekanmiz, muallif keng doirada: har bir kasb va sohaning ustalari, mohirlari haqida fikr bildirgan deya olamiz. Asarda "yetuk ustoz" birikmasini qo‘llanib, kamolotda yuksak, fikri teran, fitrati toza, tiynati sof murabbiyga ishora qilinadi.

Maqsad sari eltuvchi yo‘l juda murakkab, xatarli, qaroqchilar bu yo‘lda sayyohga to‘sqinlik qiladi, shayton hiyla tuzog‘i qo‘yishi mumkin, agar sohib karomat bir yo‘lboshlovchi bo‘lmasa, manzilga salomat yetish ham mushkul. Buni So‘fi Olloyor quyidagicha yoritadi:

O‘shal ganji nihon yotqon zaminda,  
Muhayyodur qaroqchilar kaminda.

Agar bo‘lmasa yo‘l boshlag‘uvchi pir,  
Solur bo‘ynunga shayton domi tazvir.  
Agar bo‘lmasa bir sohib karomat,  
Emas mumkin kishi yetgay salomat.

Axir xalqimiz bekorga "Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar," - demaydi. Aslida, Sharq xalqlarida azal-azaldan ilm egalari, karomat sohiblari, pir-u shayxlar, ustozlar benihoyat ulug‘langan. Har narsaning ustasi bo‘lish uchun ustozdan saboq olish naqadar muhimligi har doim farzandlarga uqtirib kelinadi. Ota-onalar bolalarini nomi chiqqan shayxlarga muridlikka berar ekan, xalqda an‘ana bo‘lgan bir iborani aytishgan: Eti sizniki - suyagi bizniki. Bu ibora shogird butun inon-ixtiyorini murshidiga topshirishini anglatadi. Bir qarashda bir qadar murakkab ko‘rinadigan bu holat aslida purning yelkasiga juda katta mas‘uliyat yuklaydi. Hammani ham ustoz bilib, etagidan tutib ketaverish yaramaydi. Bunga ma‘naviy haqqi bo‘lgan insonni topish, uning ruhoniy olamidani bahramand bo‘lish lozim. Xo‘sh, kamolot sohibining yetuk fazilatlarini qanday? Muallif ularni mana bu tarzda tavsiflaydi:

O‘shal piriki erning eri bo‘lg‘ay,  
Tariqat beshasining sheri bo‘lg‘ay.

Ya‘ni pir erlarning eri, tariqat o‘rmonining sheri bo‘lmog‘i lozim.  
Tasavvufda "sher"lik tushunchasiga to‘xtalar ekanmiz, bevosita Navoiyning mashhur misralari yodimizga keladi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasiga panja urmoq.  
Kerak sher ollida ham sheri jangi,  
Agar sher bo‘lmasa bore palangi.

Pir erlikdan saboq berar ekan, o‘zi ham uning namunasi bo‘lib, murshidlarining qalbini jo‘mardlik obi ila sug‘orsa, haqiqiy rahnaviylik shudir. Zero sherning izdoshi sher, erning shogirdi erdir. So‘fi Olloyor munosib pirga qo‘l bermoq, Navoiy pirga munosib shogird bo‘lmoq g‘oyalarini ilgari suradi.

Taxallus qilmasa hech shar‘ ishidin,  
Tama‘lik bo‘lmasa hargiz kishidin.

She‘rlarning sheri bo‘lgan pir hech qachon shariat yo‘lidan chekinmaydi, insondan hech ham tama‘ qilmaydi. Chunki har qanday tama‘ purning ulug‘ligiga putur yetkazadi. Navoiy ta‘biricha: "Qone‘ darveshning quruq noni tome‘ shohning xitoyi dasturxonidan xo‘broqdur" ("Nazm ul-javohir" dan). Shuning uchun ham So‘fi Olloyor haqiqiy pirni tama‘ girlikdan tamoman yiroq inson sifatida ta‘riflaydi.

Qayu ermish fano bo‘lg‘on nishoni,  
Takabbur bo‘lmasa miqdori doni.  
O‘zining nafsini ul bilmasa pok,  
Bo‘lib qulluqda aytsa: "mo abadnok".

Agarchi bo‘lmasa forig‘ ishidin,  
O‘zin kam tutsa har mo‘min kishidin.  
Eshitmasa kishi hech "man" deganin,  
O‘zi ham bilmasa foni ekanin.

Fano maqomini olgan kishining nishoni, ya’ni belgisi unda don miqdorichalik ham kibr, takabburlik bo‘lmaydi, o‘zining nafsini hech qachon pok deb bilmaydi, doimo ibodatda bo‘lib, "yetarli darajada ibodat qilolmayman," - deydi. Shunchalik ibodatda bo‘lishiga qaramasdan har bir mo‘min kishidan o‘zini kamtarroq tutadi, odamlar hech qachon uning "man" deganini eshitmaydi, bunday inson hatto o‘zining fano ekanligidan ham xabari bo‘lmaydi. Ijodkor haqiqiy ustozni tariqchalik kibrdan ham yiroq inson sifatida tasvirlaydi. Zeroki faqatgina kibr tufayli shayton farishtalik matlabidan mosuvo bo‘ldi va Ollohning huzuridan haydalib uning la’natiga duchor bo‘ldi.

O‘zi aytsa "fano bo‘ldim", emasdur,  
Fano bo‘lg‘on kishi hargiz demasdur.  
O‘zining boshini sotsa o‘zi qul,  
Qachon oqil kishi bergay anga pul.

Agar inson o‘zi "fano bo‘ldim" desa demak u fanolardan emas, chunki fano bo‘lgan kishi hargiz bunday so‘zlarni tiliga olmaydi. Shu o‘rinda So‘fi Olloyor misol tariqasida qulning o‘z boshini (o‘zini) sotishi qanchalar ahmoqgarchilik ekanligini va oqil inson unga pul bermasligini ta’kidlaydi.

Haqiqiy piri komilning turfa xil sifatlarini hayotiy misollar yordamida aniq va ravshan tushuntirgan So‘fi Olloyor bob yakunida ana shunday pirga munosib shogird bo‘lish ham zarurligini aytib o‘tadi. Yo‘lboshchining yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarga ega bo‘lganiga qaramasdan muridning ko‘ngli ravshan bo‘lmasa, demak ayb ustozda emas, balki shogirdadir, - degan fikrlar bilan bobni yakunlaydi ijodkor:

Bu ta’riflarga sodiq bo‘lsa piring,  
Va lekin bo‘lmasa ravshan zamiring.  
Erur nuqson o‘zingdin ko‘rma andin,  
Bo‘lur sa’y albatta "pirman" degandin.  
Piring farmonidin qilsang taxalluf  
Taassufdir, taassufdir, taassuf.

Xulosa qilib aytganda, So‘fi Olloyor shariatdagi komil pir tushunchasiga sodda va aniq, xalqona tilda qisqacha ta’rif bergan. Ijodkor tushunilishi unchalar murakkab bo‘lmagan, o‘z davri kishilari uchun nihoyatda ravon o‘qiladigan, har bir tushunchaga to‘liq va ayni paytda oddiy misollar yordamida maktab va madrasalarda darslik sifatida o‘qitiladigan badiiy asar yaratadi.

**Adabiyotlar:**

1. So‘fi Olloyor. "Sabot ul-ojizin".
2. Rashid Zohid.
3. So‘fi Olloyor. "Sabot ul-ojizin" sharhi. "Ravoyihur rayhon" / - Toshkent: "Matbaachi", 2022. - 576 b.
4. Rahmonova Zulayho. " XII- XV asr o‘zbek adabiyotida murshid va murid obrazi". PhD dis. / - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2020. - 199 b.

